



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING BADIY IJODIY QOBILIYATLARINI QO‘G‘IRCHOQ TEATRI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari

Abduraimova Mohichehra Jora qizi

Rahmonova Mavluda Sheraliyevna

Sotvoldiyeva Mohinur Ilxomjon qizi

Аннотация

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari, qo‘g‘irchoq teatri – badiiy ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida, qo‘g‘irchoq teatri faoliyatining turlari (qo‘l qo‘g‘irchog‘i, barmoq qo‘g‘irchog‘i, stol teatri, soya teatri va boshqalar), qo‘g‘irchoq teatri orqali bolalarda nutq, tasavvur va hissiy ifodaning rivojlanishi, qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etishda tarbiyachining o‘rni va vazifalari, bolalarni qo‘g‘irchoq teatrida ishtirok etishga tayyorlash bosqichlari, qo‘g‘irchoq teatri mashg‘ulotlarining namunaviy jarayoni, xulosa va tavsiyalar – badiiy ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda qo‘g‘irchoq teatrining tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikr va mulohazalar keng tarzda yoritilgan.

Аннотация

В данной статье подробно раскрываются психологико-педагогические основы формирования художественно-творческих способностей у детей старшего дошкольного возраста, кукольный театр как эффективное средство развития художественного творчества, виды деятельности кукольного театра (кукла на руку, пальчиковая кукла, настольный театр, театр теней и другие), развитие речи, воображения и эмоционального выражения у детей посредством кукольного театра, роль и задачи воспитателя при организации



кукольного театра, этапы подготовки детей к участию в театральной деятельности, примерный процесс проведения занятий кукольного театра, а также выводы и рекомендации, отражающие воспитательное значение кукольного театра в развитии художественно-творческих способностей детей.

Annotation

This article provides a detailed analysis of the psychological and pedagogical foundations for developing artistic and creative abilities in older preschool children. It discusses puppet theatre as an effective means of fostering artistic creativity, the various types of puppet theatre activities (hand puppets, finger puppets, table theatre, shadow theatre, and others), and how puppet theatre contributes to the development of children's speech, imagination, and emotional expression. The article also highlights the role and responsibilities of the educator in organizing puppet theatre activities, the stages of preparing children for participation, an example of a puppet theatre session process, as well as conclusions and recommendations emphasizing the educational significance of puppet theatre in nurturing artistic and creative abilities in children.

Kalit so'zlar: Badiiy ijod, qo'g'irchoq teatri, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, tasavvur, nutq rivoji, tarbiyachi, teatr faoliyati, estetik tarbiya, hissiy ifoda, dramatisatsiya, rol o'yin, sahnalashtirish, nutq madaniyati, bolalar qiziqishi, ma'naviy tarbiya, badiiy tafakkur.

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Teatr yunoncha "Tiyation" so'zidan olingan bo'lib, tomoshaxona degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylar sevimli teatri, bu ko'g'irchoq teatridir. Qo'g'irchoqbozlar ayni vaqtda musiqadan yaxshi xabardor bo'lganlar. Musiqa ham badiiy bezak sifatida, ham ko'proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Bolalarda axloqiy – estetik sifatlarni shakllantirish turli yo'llar, shakllar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. SHu jihatdan olib qaralganda,



qo'g'irchoq teatri – estetik tuyg'ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, badiiy ijodiy qobiliyatlarni erta yoshdan shakllantirish ularning tafakkuri, estetik didi va emotsional olamini boyitishda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar (5–7 yosh) tasavvuri keng, his-tuyg'ulari boy, yangi taassurotlarga ochiq bo'lgan davrda turadilar. Shu bois, bu bosqichda ularning ijodiy fikrlashini, san'atga bo'lgan qiziqishini to'g'ri yo'naltirish tarbiyachidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.

Qo'g'irchoq teatri maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. U nafaqat bolalarda estetik zavqni uyg'otadi, balki ularning nutqini, tasavvurini, muloqot madaniyatini, sahnalashtirish qobiliyatini va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Qo'g'irchoq teatrida ishtirok etish jarayonida bola o'z fikrini erkin ifoda etadi, obraz yaratadi, o'z his-tuyg'ularini badiiy shaklda yetkazishni o'rganadi.

Shu jihatdan, "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni" mavzusi dolzarb bo'lib, u maktabgacha ta'lim tizimida estetik tarbiyani samarali tashkil etish, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash masalalariga bevosita aloqador hisoblanadi. Qo'g'irchoq teatri bolalarning estetik didini, axloqiy sifatlarini shakllantirish bilan birga, ularning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va improvizatsiya qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat talablari va "Ilk qadam" o'quv dasturida ham bolalarni san'at turlari orqali har tomonlama rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan.

Xulosa qilib aytganda Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, qo'g'irchoq teatri maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy



qobiliyatlarini rivojlantirishda nihoyatda samarali vosita hisoblanadi. U nafaqat bolalarda estetik didni, balki mustaqil fikrlash, nutqiy faollik, tasavvur, his-tuygʻu va ijtimoiy muloqot koʻnikmalarini ham shakllantiradi. Qoʻgʻirchoq teatri orqali bola oʻzini erkin ifoda etadi, obraz yaratadi, hayotiy voqealarga badiiy nigoh bilan qarashni oʻrganadi.

Bunday faoliyat davomida bolalarda sahnalashtirish madaniyati, hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, his-tuygʻularni boshqarish, goʻzallikni his etish va unga intilish kabi fazilatlar shakllanadi. Shu bois tarbiyachilar qoʻgʻirchoq teatridan taʼlim-tarbiya jarayonida keng foydalanishlari, uni bolalar ijodini rivojlantiruvchi asosiy metodlardan biri sifatida qoʻllashlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Loy, C. L. (2017). Boneka sebagai alat pedagogi dalam perkembangan sosial dan emosi kanak-kanak prasekolah: Puppets as pedagogical tools in social development and emotion of preschool children. Jurnal Pendidikan Awal Kanak-Kanak Kebangsaan, 6(1), 45-56.
2. Saraieva, I. (2021). Artistic and creative activities in working with preschool children. Continuing Professional Education: Theory and Practice.
3. Loy, C. L. (2021). Puppetry activities in early childhood programmes. Southeast Asia Early Childhood Journal, 10, 89-96.
4. Ersan Öztürk, I. (2022). The effect of puppets as a communication tool for children. Journal of Arts, 5(1), 27-34.
5. Loy, C. L. (2022). Puppetry-Based Learning and Children's Holistic Development. Jurnal Pendidikan Bitara UPSI, 15, 1-7.
6. Ahmad, S. K. & Mohammed Ali, S. F. (2023). The effect of puppet theater on the development of life skills among kindergarten children in Sulaimani. Mitanni Journal of Humanitarian Sciences, 4(1), 964-979. □